



BADIY MATN VA UNGA KOGNITIV YONDASHUV

Hakimov Muhammadjon Xo'jaxonovich

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fanlar doktori professor

Kasimova Xusnida Muzaffar qizi

Farg'ona davlat universiteti Magistratura bo'limi Lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi

II bosqich magistrant

Abstrakt: Ushbu maqolada tilshunoslik sohasida matn atamasiga berilgan ayrim tilshunos olimlarning ta'riflarini farqli va o'xshash jihatlari ko'rib chiqilgan. Matn turlari va badiiy matn bilan badiiy asarning farqli tomonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: matn, tekst, matn turlari, badiiy matn, badiiy asar, lingvistika, kontekst, diskurs, potensial birlik.

Kirish:

Ma'lumki, matn nutqiy xodisa bo'lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmuniy birikishidir. «Kuz. Dalalarda ish qaynay boshladi» shaklidagi beshtagina so'zning mazmunan birikishidan tortib, butun boshli badiiy romanlar yirik trilogiyalar ham matn sanaladi. Har bir matn ma'lum bir narsa, voqeа-hodisani tasvirlaydi, u haqida xabar beradi, so'zlovchining munosabatini ifodalaydi.

Ilmiy adabiyotlarda «matn», «tekst» atamalari turli xil talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan tekst so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi. Izohli lug'atning 156-b.ida tekst so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: [r<lat] 1. Yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilalar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti. 2. Muzika asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z. 3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi[8;156]. Azim Xojiyev esa o'zining «Tilshunoshlik terminlari izohli lug'ati»da «tekst» atamasiga quyidagicha ta'rif bergan. Tekst (<lot. textus- bog'lanish, qo'shilish). Yonma -yon bosma harf orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi[6;88]. Yuqoridagi ta'riflarda matn haqida ilmiy ma'lumotlat berilgan.

Matn tushunchasi borasida barcha. tilshunos olimlarning bir umumiyligi va yagona fikri mavjud emas. Masalan tilshunos M.X.Hakimov ilmiy matn tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsion ishida bu haqda shunday yozadi: «Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, Matn birliklarining o'zaro bog'lanishini ifoda etuvchi takror va uning bir necha ko'rinishi, olmosh turkumiga oid ba'zi so'zlar, gapning so'roq shakliga xos bo'lgan ko'rinishining matn hosil qilishdagi vazifalari matn tilshunoslida alohida o'rinni tutadi»[10;7]. Bu fikri bilan muallif «matn», «nutq» va «kontekst» atamalaini bir biridan farqli ekanligini aytin o'tgan. Nutq og'zaki va yozma shakllarda namoyon bo'ladi. Nutqning yozma shakli matn atamasi ifodalaydigan mazmunga muvofiq keladi. «Nutq sub'ektdan adresatga yo'naltiriluvchi nutqiy faoliyat






hisoblanadi. Matn esa faqat ob'ektiv informatsiyadan iborat bo'lmay, balki o'ziga pragmatik mazmunni ham qamrab olgan nutqning material ko'rinishidir»[5;5]. Tilshunos olim M.Arrib «Diskurs, ifoda (recit) va bular orasidagi aloqani maydonga keltiradigan butunlikka matn deyiladi»[9;46] deydi. Ilmiy adabiyotlarda kontekst atamasi nutqiy vaziyat mahsuli deb ko'rsatiladi. «Kontekst – bu bir leksik yoki grammatik birlik asosida ifodalangan ma'no yoki tushunchani oydinlashtirish uchun keltirilgan, tuzilgan minimal nutq birligi. Qoida bo'yicha bu – so'z birikmasi, ba'zan gap, kamdan-kam abzats yoki yaxlit matnga teng keladi»[2;29]. Kontekst so'zlarning semantik ma'nosi reallashadigan o'ziga xos maydon, nutqiy vaziyat hisoblanadi. Bu o'rinda S.D.Katsnelsonning quyidagi fikrini keltirib o'tish o'rinni: «Borliqning mavjud dalillari lug'atlarda berilganidek alohida so'zlarda emas, balki nutqiy aloqalarda, tugal xabarlarda, matnlarda, ularning minimal bo'lagi bo'lgan gaplarda aks etadi... So'zlar va ular ma'nolarining ong va borliqqa munosabati gap orqali bog'langan, gapdan tashqarida ular faqat potensial birlikdir, xolos. Ularni mexanizmning detallariga qiyoslash mumkin, ularning vazifasi faqatgina butun bir mexanizm bilan aloqada tushuniladi»[7;187]. Hozirgi davrda matn turlari va ularga xos bo'lgan belgixususiyatlarni aniqlash davom etmoqda. Biz matnning o'ziga xos belgilari sifatida axborot berish, mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunlikdan tashkil topishi, tarkibiy qismlar orasida mazmuniy va sintaktik aloqalarning mavjudligi, makon va zamon izchilligi, yaxlitligi va tugallanganligi, bir umumiy mavzuga egaligi kabilarni tushunamiz. Matn ana shunday belgilarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab kommunikativ - sintaktik butunlikdir[11;103]. Y.M.Lotman «matn ifodalilik (ma'lum bir fikr ifodalangan bo'lishi), chegaralanganlik (mazmun va ifodadagi me'yoriylikning bo'lishi) va struktural butunlik belgilariga ega bo'lishi lozim»[4;67] ligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, badiiy matn uchun mazkur belgilar favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy matn matn turlaridan biri sanaladi va u estetik maqsadlarda ishlab chiqarilgan matnlardir. Tilshunos Ma'rufjon Yo'ldoshev «Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko'ra erkin jamlay olgan, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik zavq berish, ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi»[3;88] deb badiiy matnni tasvirlagan. Badiiy matn cheksiz, uning chegarani tan olmaydi va u muallifga bo'ysunmaydi. Unda ta'sirchanlik birinchi o'rinda turadi shu sababli tinglovchi yoki o'quvchini jalb qilish maqsadida badiiy tasvir vositalaridan keng foydalaniladi. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish kerakki, bu matn ko'p qatlamlidir. Bu haqida Rolan Bart o'zining chiroyli ta'rifini berib o'tgan «Badiiy matn bu bir xil ipdan emas, balki turlituman, rang-barang iplardan pishiq va puxta to'qilgan matodir»[1;245]

Butun dunyo tilshunos olimlar matn va badiiy matn haqida keng ko'lamda izlanishlar olib borishgan va o'zlarining ko'plab ilmiy ishlarini yozishgan. Buning yaqqol misoli sifatida yuqorida bir qator tilshunoslarning ishlaridan qisqacha





ma'lumotlarni oldik. Aytib o'tganimizdek bu atamalarni ta'riflashda mutaxassislar o'rtasida yagona fikr yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва; Прогресс. 1989. с.245
2. Зильберман Л. Лингвистика текста и обучение чтению английской научной литературы. –М.; 1988, с. 29.
3. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент; Фан,2008.
4. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. –Москва; bvg 1970.
5. Матвеева Т.В. Функциональные стили в аспекте текстовых категорий.– Свердловск; 1990.
6. Хаджиев А. Тилшунослик терминлари изоҳли луғати-Тошкент; ўқитувчи, 1985.
7. Шамсиддинов Ҳ. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. Филол.фан.докт...дис.-Тошкент; 1999.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –М.; Русский язык, 1981.
9. Қаранг: Şerif Aktaş Edebiyatta üslup ve problemleri. –Ankara; «Akçağ», 1993.
10. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Филол.фан.номз...дис. –Тошкент; 1993, 7-б. 11. Ҳакимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. Филол.фан.номз... дис. –Фарғона; 2004.

